https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Aralova Matluba Qodir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti
Axrorova Mahina, ilmiy rahbar,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent,
Email :Matlubaaralova54@gmail.com

GAP BO'LAKLARI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETESIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarining 8-sinf ona tili darslarida gap bo‘laklarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda grammatik bilimlarning faqat nazariy tahlil bilan cheklanib qolishi o‘quvchilarning nutqiy faolligini yetarli darajada rag‘batlantirmasligi aniqlanadi. Kommunikativ yondashuv asosida “Fishbone”, “Muammoli vaziyat”, “Charxpalak”, “Do‘stingni top” kabi interfaol metodlar dars jarayoniga tatbiq etildi. Ushbu metodlar asosida o‘quvchilarning gap bo‘laklarini aniqlash, mazmun asosida tahlil qilish hamda og‘zaki va yozma nutqda ongli qo‘llash ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar gap bo‘laklarini kommunikativ asosda o‘qitish o‘quvchilarning nutq madaniyati va muloqotga tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: gap bo‘laklari, kommunikativ kompetensiya, ona tili darslari, interfaol metodlar, Charxpalak, Fishbone.

Annotation: This article analyzes the ways of developing communicative competence among 8th grade students through teaching sentence parts in mother tongue lessons. The study reveals that limiting grammar instruction to theoretical

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

analysis does not sufficiently stimulate students' speech activity. Within a communicative approach, interactive methods such as "Fishbone", "Problem-based situation", "Charxpalak" and "Find your friend" were implemented in the teaching process. As a result, positive changes were observed in students' ability to identify sentence parts, analyze them on the basis of meaning, and consciously use them in oral and written speech. The findings indicate that teaching sentence parts through a communicative approach effectively contributes to the development of students' speech culture and readiness for communication.

Keywords: sentence parts, communicative competence, mother tongue lessons, interactive methods, Fishbone, Charxpalak.

Аннотация.В статье анализируются пути развития коммуникативной компетенции учащихся 8-х классов при обучении членам предложения на уроках родного языка. Установлено, что ограничение обучения грамматике лишь теоретическим разбором не обеспечивает достаточную речевую активность школьников. В рамках коммуникативного подхода в учебный процесс были внедрены интерактивные методы «Fishbone», «Проблемная ситуация», «Чархпалак» и «Найди друга». В результате отмечены положительные изменения в умении учащихся определять члены предложения, анализировать их на основе смысла и осознанно использовать в устной и письменной речи. Полученные результаты подтверждают эффективность коммуникативного обучения в развитии речевой культуры и готовности учащихся к общению.


Ключевые слова: члены предложения, коммуникативная компетенция, уроки родного языка, интерактивные методы, Fishbone, Чархпалак.

KIRISH

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchini faqat bilimli emas, balki muloqotga kirisha oladigan, mustaqil fikr bildira oladigan shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlarda ham shaxsning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonda ona tili fani o‘quvchilarning tilni ongli egallashi, fikrni aniq va ravon ifodalashi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.



Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ona tili darslarida “Gap bo‘laklari” mavzusi ko‘pincha qoidalarni yodlash, sxematik tahlil va an’anaviy mashqlar bilan cheklanib qoladi. Bunda o‘quvchilar ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va holni ajrata olsalar-da, ularni real muloqot jarayonida ongli qo‘llash, mazmunan to‘liq va mantiqan izchil gaplar tuzish ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaydi. Natijada grammatik bilimlar hayotiy nutqdan ajralgan holda qolib ketadi.

Ilmiy muammo shundaki, “Gap bo‘laklari” mavzusini o‘rgatishda grammatik bilim bilan bir qatorda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik tizim yetarlicha ishlab chiqilmagan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot maqsadi – 8-sinf ona tili darslarida gap bo‘laklarini o‘qitish jarayonida kommunikativ yondashuv asosida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti – umumta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – gap bo‘laklarini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metod va usullar.

Tadqiqot vazifalari:

1. Gap bo‘laklarini o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish.

2. Kommunikativ kompetensiya va kommunikativ yondashuv mohiyatini ochib berish.

3. “Gap bo‘laklari” mavzusini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitishga mo‘ljallangan interfaol metodlar tizimini ishlab chiqish.

4. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari orqali mazkur metodlarning samaradorligini aniqlash.

5. Ona tili o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, 8-sinf ona tili darslarida “Gap bo‘laklari” mavzusi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish markaziy mezon sifatida olinib, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, differensial yondashuv va darsdan tashqari faoliyat bilan integratsiyada ko‘rib chiqiladi.

Amaliy ahamiyati – maqolada taklif etilgan topshiriqlar, o‘yinlar, muammoli vaziyat asosidagi mashqlar va raqamli resurslar o‘qituvchilarning amaliy faoliyatida qo‘llashga tayyor metodik material bo‘lib xizmat qiladi.

METODLAR

Tadqiqot bazasi va ishtirokchilari

Tadqiqot Samarqand shahri 20-umumta’lim maktablarining 8-sinf ona tili darslarida “Gap bo‘laklari” bo‘limi o‘tilishi jarayonida olib borildi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari bir necha sinfda tashkil qilinib, o‘quvchilarning darsdagi faolligi, nutqiy chiqishlari, yozma ishlari va test natijalari tahlil qilindi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot metodlari

- nazariy tahlil (metodik qo‘llanmalar, darsliklar, ilmiy adabiyotlar o‘rganildi);
- pedagogik kuzatish (an’anaviy va kommunikativ yondashuv asosida o‘tkazilgan darslar solishtirildi);
- tajriba-sinov darslari (maxsus loyihalashtirilgan dars ishlanmalari asosida ish olib borildi);
- og‘zaki va yozma ishlarga tahliliy yondashuv (o‘quvchilarning gap tuzish, matn yaratish ko‘nikmalari baholandi);
- suhbat va kichik so‘rovnomalar (o‘quvchilar va o‘qituvchilarning munosabati, qiziqish va motivatsiya darajasi aniqlashtirildi).

Kommunikativ yondashuv asosidagi metodlar tavsifi

1. “Fishbone” (Sanoq suyagi) texnologiyasi

“O‘quvchilar nima uchun gap bo‘laklarini chalkashtiradi?” muammosi asosida “bosh suyak”ga muammo yozildi, yon tomonga esa sabablar va yechimlar joylashtirildi. Shu orqali o‘quvchilar grammatik xatolar ildizini topish va ularni bartaraf etish yo‘llarini muloqotda muhokama qildilar.

2. Muammoli vaziyat metodi

Darsda muammoli rasm yoki matn asosida savol qo‘yildi:

“Bu rasm asosida qanday gap tuzish mumkin?”

1-bosqichda o‘quvchilar gap tuzadilar va unda qaysi bo‘laklardan foydalanganini aytadilar.

2-bosqichda rangli qog‘ozchalardagi topshiriqlarni bajaradilar (ega va kesimni almashtirish, gapni kengaytirish va h.k.).

3-bosqichda kichik guruhlar har bir rasmga gap tuzib, gap bo‘laklarini suhbat orqali aniqlaydilar:

Ko‘k osmonda quyosh botmoqda. Xonada yumshoq stul turibdi. Ko‘prik ustidan odamlar o‘tmoqda.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4-bosqichda guruhlar xulosalarini taqdim etadilar.

Bu metod nafaqat grammatik tushunchani, balki uni kommunikativ nutqda qo‘llashni ham o‘rgatdi.

3. “So‘z sehrgari” metodi

Dars jarayonida o‘quvchilarga 4–5 ta alohida kartochka tarqatildi. Kartochkalarda turli so‘zlar yozilgan bo‘lib, har bir o‘quvchi berilgan so‘zlar ishtirokida bittadan gap tuzdi. So‘ngra tuzilgan gaplar og‘zaki o‘qildi va har bir gapdagi ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol aniqlab chiqildi. Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar gap bo‘laklarini tayyor misollar asosida emas, balki o‘zlari tuzgan gaplar asosida tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldilar.

4. “Sirli topshiriq” metodi

O‘qituvchi oldindan kichik qog‘ozlarga gap bo‘laklari bo‘yicha savollar tayyorlab, yopiq holatda sinfga olib keldi. O‘quvchilar navbat bilan bitta savol tanlab, unga og‘zaki javob berdilar. Javob berilganidan so‘ng, boshqa o‘quvchilar to‘g‘rilik darajasini baholadi. Ushbu jarayon orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari esga tushirildi va keyingi amaliy mashg‘ulotlar uchun tayanch bilimlar mustahkamlandi.

5. “Do‘stingni top” metodi

Sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab savol va javob yozilgan kartochkalar tayyorlandi. Masalan, 15 ta savol va 15 ta javob. “Afzal so‘zining ma’nodoshini toping” – “yaxshi” kabi. Har bir o‘quvchi tasodifiy kartochka oladi. Savol egasi savolni o‘qiydi, javob kimda bo‘lsa, u o‘rnidan turib javob beradi. Metod o‘zaro muloqotni, diqqatni va leksik hamda grammatik bilimni mustahkamladi.

6. “Charxpalak” texnologiyasi

“Charxpalak” shaklidagi jadvalda mavzu bo‘yicha savollar joylashtirildi. O‘quvchilar yakka, juftlikda yoki guruhda ishlash orqali savollarga javob berib charxpalakni to‘ldirdilar. Bu texnologiya o‘tilgan mavzuni takrorlash, nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholashda qo‘llanildi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiya

Darslarda interaktiv doska, onlayn testlar, audio-video materiallar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanildi:

- interaktiv doskada gap bo‘laklari sxemasi ko‘rsatildi, bo‘laklar turli ranglar bilan ajratildi;
- onlayn platformalar orqali uyga vazifa sifatida test va mashqlar berildi;
- audio matnlar asosida gap bo‘laklarini topish mashqlari tashkil qilindi;
- ball to‘plash, reyting, “mukofot yulduzchalari” kabi o‘yinlashtirish elementlari motivatsiyani oshirdi.

Gap bo‘laklari mavzusi adabiyot, tarix, tabiatshunoslik fanlaridagi matnlar bilan bog‘lab o‘qitildi. Bu integratsiya o‘quvchilarga mazmunan boy, kontekstli gaplar ustida ishlash imkonini berdi.

Differensial yondashuv

Kuchli o‘quvchilarga murakkab matnlar asosida tahlil topshiriqlari, o‘rta darajadagilarga qo‘shimcha izohli mashqlar, qiyinlanayotgan o‘quvchilarga esa sodda gaplar asosida ko‘maklashuvchi topshiriqlar berildi. Bu yondashuv har bir o‘quvchining imkoniyati va sur’atiga moslashtirilgan o‘qitishni ta’minladi.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida gap bo‘laklarini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba–sinov ishlari modellashtirilgan shaklda tashkil etildi. Tajriba jarayoni umumta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan dars kuzatuvlari, yozma va og‘zaki ishlanmalar tahlili hamda diagnostik topshiriqlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda jami 28 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tajriba uch bosqichda tashkil etildi: boshlang‘ich tashxis, amaliy bosqich va yakuniy nazorat.

Birinchi, boshlang‘ich tashxis bosqichida o‘quvchilarning gap bo‘laklari bo‘yicha mavjud bilim va ko‘nikmalari aniqlab olindi. O‘quvchilarga ega, kesim,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

to‘ldiruvchi, aniqlovchi va holni aniqlashga doir test hamda yozma topshiriqlar berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning ko‘pchiligi gap bo‘laklarini faqat savol yordamida aniqlay olgan, mazmun asosida tahlil qilishda esa qiyinchiliklarga duch kelgan.

Ikkinchi, amaliy bosqichda darslar kommunikativ yondashuv asosida qayta loyihalashtirildi. Mashg‘ulotlarda “Muammoli vaziyat”, “Charxpalak”, “Fishbone” va “Do‘stingni top” metodlari tizimli ravishda qo‘llandi. O‘quvchilar matn asosida gaplar tuzish, tuzilgan gaplarda bo‘laklarni aniqlash, guruhlarda ishlash hamda og‘zaki izoh berish orqali faol muloqotga jalb etildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning darsdagi faolligi, mustaqil fikr bildirishi va grammatik birliklarni nutqda qo‘llashi muntazam kuzatib borildi.

Uchinchi, yakuniy nazorat bosqichida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar qayta tekshirildi. Yakuniy yozma ish va og‘zaki savol-javob natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning gap bo‘laklarini aniqlash, grammatik tahlil qilish hamda ularni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘rsatkichlarida ijobiy siljishlar kuzatildi. Xususan, boshlang‘ich bosqichda topshiriqlarni to‘liq bajargan o‘quvchilar soni 11 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy bosqichda bu ko‘rsatkich 21 nafarga yetdi. Og‘zaki mashg‘ulotlarda faol qatnashgan o‘quvchilar soni esa 9 nafardan 18 nafarga oshdi.

Tajriba–sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, gap bo‘laklarini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning grammatik bilimlarini real nutq jarayonida ongli qo‘llashiga, muloqot madaniyatining shakllanishiga va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA XULOSA

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, gap bo‘laklarini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning grammatik bilimlaridan amaliy nutqda foydalanish malakasini sezilarli darajada yaxshiladi. Eng muhim o‘zgarishlardan biri shundaki, o‘quvchilar gap bo‘laklarini endi faqat tahlil uchun emas, balki mazmunli gap va matn tuzish jarayonida ongli ravishda qo‘llay boshladilar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Birinchidan, interfaol metodlar (“Fishbone”, muammoli vaziyat, “Charxpalak”, “So‘z sehrgari”, “Sirli topshiriq”, “Do‘stingni top” va boshqalar) o‘quvchilarni darsning passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ular gap bo‘laklarini tayyor misollardan emas, balki o‘zlari tuzgan gap va matnlar asosida o‘rganadilar.

Ikkinchidan, kommunikativ vaziyatlar – suhbat, munozara, rol o‘yinlari, juftlik va guruhli ishlar orqali o‘quvchilar grammatik shakl va tuzilmalarni real muloqot jarayonida qo‘llashga majbur bo‘ladi. Bu jarayon ularning nutqiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va fanlararo integratsiya darsni zamonaviylashtiradi, o‘quvchi tajribasini kengaytiradi, ko‘rgazmalilik va mustaqil o‘qish imkoniyatlarini oshiradi.

To‘rtinchidan, differensial yondashuv har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatini hisobga olishga, kuchli o‘quvchini yanada rag‘batlantirishga, qiyinlanayotgan o‘quvchini esa qo‘llab-quvvatlashga imkon yaratadi.

Asosiy xulosalar

1. Gap bo‘laklarini o‘rgatishda kommunikativ yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning grammatik bilimlari bilan birga, ularning og‘zaki va yozma nutqini, muloqot madaniyatini, ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

2. “Fishbone”, muammoli vaziyat, “Charxpalak”, “So‘z sehrgari”, “Sirli topshiriq”, “Do‘stingni top” kabi interfaol metodlar 8-sinf o‘quvchilari yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lib, dars samaradorligini oshiradi.

3. Raqamli texnologiyalar (interaktiv doska, onlayn testlar, audio-video materiallar) va gamifikatsiya elementlari motivatsiyani oshiradi, mustaqil o‘qish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Fanlararo integratsiya gap bo‘laklarini turli mazmundagi matnlar asosida o‘rganishga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashi va lug‘at boyligini kengaytiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. Differensial yondashuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda jarayonni tashkil etish imkonini beradi va har bir o‘quvchining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Amaliy tavsiyalar

Ona tili o‘qituvchilari “Gap bo‘laklari” mavzusidagi dars ishlanmalari va yillik rejalarga kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni tizimli ravishda kiritishlari maqsadga muvofiq.

Har bir nazariy qoidani kamida bitta interfaol metod (muammoli vaziyat, guruhli ish, rol o‘yinlari, “So‘z sehrgari”, “Sirli topshiriq”, “Do‘stingni top”, “Charxpalak” va h.k.) bilan mustahkamlash tavsiya etiladi.

Dars jarayonida kamida bitta raqamli resursdan (prezentatsiya, interaktiv mashq, audio-video matn) foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jamlash va darsni vizuallashtirishga yordam beradi.

Darsdan tashqari adabiy kechalar, til viktorinalari, “So‘z sehrgari”, “Kim tez topadi?” kabi o‘yinlar orqali gap bo‘laklari mavzusini ijodiy shaklda mustahkamlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv, ayniqsa gap bo‘laklarini o‘qitishda, zamon talablari va O‘zbekiston–2030 strategiyasi hamda ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarga to‘liq mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Jalilov. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodlari.— Toshkent, O‘qituvchi, 2021.

2. A.Jo‘raev. Ona tili o‘qitish metodikasi.— Toshkent, Fan va texnologiya, 2019.

3. A.Jo‘raev, M.To‘xtaboeva. Ona tili: 8-sinf darsligi.— Toshkent, O‘qituvchi, 2021.

4. A.Nurmonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.— Toshkent, Universitet, 2018.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumta’lim maktablari uchun metodik qo‘llanmalar.— Toshkent, XTV nashriyoti, 2022.

6. Davlat test markazi. Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standarti.— Toshkent, DTM nashriyoti, 2020.

7. A.Qodirov. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar.— Toshkent, Fan va texnologiya, 2020.